

YANGI KONSTITUTSIYA-TARAQQIYOT QOMUSI

Xolmirzayeva Aziza Jumanazar qizi

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
“Raqamli iqtisodiyot” fakulteti,
3-bosqich talabasi,
+998995380615

Ilmiy raxbar: Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

“Raqamli iqtisodiyot” fakulteti dekan o‘rinbosari,
Dotsent Xashimova D. P.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan o‘zgartirishlar va fuqarolarga berilayotgan imkoniyatlar haqida keng yoritib berilgan

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, inson huquqlari, qonun, ijtimoiy munosabatlар, normativ-huquqiy hujjatlar.

Konstitutsiya deganda ko‘z oldimizga davlat tuzilmasini, fuqarolarning huquq, erkinliklari va burchlarini belgilovchi hamda oliv yuridik kuchga ega bo‘lgan huquqiy hujjat keladi. Konstitutsiya o‘zi nima? Konstitutsiya-bu davlatning asosiy qonuni. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirilish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, shuningdek, sud tizimini belgilab beradi. Konstitutsiya barcha joriy qonunlarning asosi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabr kuni qabul qilingan. Konstitutsiya-baxtimiz qomusi bo‘lib, bizga o‘z haq-huquqlarimizni va majburiyatlarimizni yaxshi bilishimizda yordam beradi. Konstitutsiya jamiyatda muhim rol o‘ynaydi, chunki u huquqiy tartibning asosiy tamoyillarini, davlatni tashkil etishni, fuqarolarning huquq va burchlarini belgilaydi. Konstitutsiya, shuningdek, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qiladi, hukumat vakolatlarini cheklaydi va hukumatning turli tarmoqlari o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlaydi. Shuningdek, u hokimiyatni suiste‘mol qilishning oldini olish uchun nazorat va muvozanat tizimini o‘rnatadi.

Yangi O‘zbekistonda yashayotganimiz tufayli Konstitutsiyamizga ham ko‘plab o‘zgartirishlar kiritildi va bizga yanada kengroq imkoniyatlar yaratildi. Davlat rahbari 2021-yil dekabr oyida, Konstitutsiya bayrami arafasida xalqqa yo‘llagan tabrigida: “Konstitutsiyani yangilashdek g‘oyat muhim, strategik vazifani hal etishda yetti marta emas, yetmish marta o‘ylash” zarurligini ta‘kidlagan edi. 2022 yil may oyida konstitutsiyaviy komissiya tuzilib, hujjatni yangilash jarayoni boshlandi. Eng quvonarlisi shunda-ki, O‘zbekiston Respublikasi referendumi umumxalq ovoz berish orqali



o‘tkazildi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri 2023 yil 1 maydan e‘tiboran kuchga kirdi. Bunga 30 aprel kuni bo‘lib o‘tgan referendum natijasiga ko‘ra 11 ta moddadan iborat tegishli qonunning qabul qilinishi asos bo‘ldi. Bunga qadar 1992 yildan buyon konstitutsiyaga jami 15 marta o‘zgartish kiritilgan edi. Bu safar esa o‘zgarishlar ko‘lami kattaligi sabab hujjatning yangi tahriri qabul qilindi. Yangilanish natijasida, bosh qomusdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi. Umuman olganda, konstitutsiya 65 foizga yangilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan asosiy o‘zgarishlarni ko‘rib chiqsak:

Inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi.

Ijtimoiy munosabatlar cheksiz shakllarga ega, ularni normativ-huquqiy hujjatlarda to‘liq kodifikatsiya qilib chiqish amalda imkonsiz. Endilikda, qonunchilikda aniq belgilab qo‘yilmagan masalalarda ziddiyat yuzaga kelsa, masala davlat emas, inson foydasiga hal etiladi. Bundan tashqari, turli hujjatlarni yuritishda davlat organlari tomonidan xatokamchilik o‘tgan taqdirda, masalan pensiya tayinlashda tegishli hujjatlar bazadan topilmay, noaniqlik yuzaga kelganida ham vaziyat fuqaro foydasiga hal etilishi kerak. Albatta, bunday yangilikdan oddiy xalq juda hursand bo‘ldi, chunki yurtimizda ba‘zi bir o‘z ishiga mas‘uliyat bilan qaramaydigan xodimlarning birgina xatolari deb ko‘plab insonlar jabr ko‘rib kelishgan.

Inson huquqlari ijtimoiy axloq va jamoat tartibini saqlash maqsadida cheklanishi mumkin:

Huquq va erkinliklarning cheklanishi masalasi avvalgi Konstitutsiyada quyidagi ikkita norma bilan tartibga solingan edi:

Insonning konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir hamda ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo‘yishga hech kim haqli emas.

Fuqarolar o‘z huquq va erkinliklarini amalgalashda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart.

Konstitutsiyaning yangi tahririda yuqoridaq ikkita norma deyarli o‘zgarishsiz saqlab qolindi. Shu bilan birga, quyidagicha yangi norma qo‘shildi:

Insonning huquq va erkinliklari faqat qonunga muvofiq va faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta‘minlash maqsadida zarur bo‘lgan doirada cheklanishi mumkin. Shuningdek, huquqlar cheklanishiga doir bu me‘yorlar, so‘z erkinligi huquqiga ham ta‘sir ko‘rsatadi. Ya‘ni, Davlat sirlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirning oshkor etilishiga yo‘l qo‘ymaslik, aholi sog‘ligini, boshqa shaxslarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish kabi maqsadlarda cheklanishi mumkin.

Shu o‘rinda, namoyishlarga oid moddani ham eslatib o‘tish o‘rinli. Bu modda avvalgi holida, o‘zgarishlarsiz saqlab qolindi:

Fuqarolar o‘z ijtimoiy faoliyklarini O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig‘ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga ega. Hokimiyyat



organlari faqat xavfsizlik nuqtai nazaridangina bunday tadbirlar o‘tkazilishini to‘xtatish yoki taqiqlash huquqiga ega.

Respublikamizdagি ustožlarimizga ham ohirgi yillarda katta e’tibor qaratilayotgani sababli, ular haqida Konstitutsiyamizga alohida modda ham qo’shildi. U ikki banddan iborat bo’lib, unda:

O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma’naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e’tirof etiladi.

Davlat o‘qituvchilarning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi.

Yangi O‘zbekiston yoshlari-kelajagimiz va istiqbolimiz poydevori. Bu poydevorni qurishda o‘qituvchilarimizning o‘rni katta. O‘qituvchilarimiz yoshlarimizga qanchalik ko‘p bilim bersa, poydevorimiz ham shunchalik mustahkam bo‘ladi.

Yer xususiy mulk bo‘lishi mumkin

O‘zbekistonda 2022 yildan e’tiboran qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish boshlangan. Shu bilan deyarli bir vaqtida, o‘tgan yili e‘lon qilingan yangi konstitutsiya loyihasining birlamchi versiyasida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerkarni xususiylashtirish mumkin emasligiga ishora qilingan edi. Yakuniy talqindan bunday cheklov olib tashlandi va yerni xususiylashtirishga oid norma quyidagicha shaklga keltirildi:

Yer qonunda nazarda tutilgan hamda undan oqilona foydalanishni va uni umummilliy boylik sifatida muhofaza qilishni ta‘minlovchi shartlar asosida va tartibda xususiy mulk bo‘lishi mumkin.

Bosh qomusning o‘tgan yili e‘lon qilingan birinchi loyihasida unga quyidagicha jumlanı kiritish taklif etilgan edi: “Iqtisodiy faoliyatda insofsiz raqobatga, monopollashtirishga yo‘l qo‘ymaydi”. Yakunda bu boradagi normalar quyidagicha ko‘rinish oldi:

Davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Monopol faoliyat qonun bilan tartibga solinadi va cheklanadi.

Hujjatning birlamchi loyihasida mavjud bo‘lgan: “Xususiylashtirish natijalari qayta ko‘rib chiqilmaydi hamda bekor qilinmaydi” degan normani konstitutsiyaga kiritmaslikka qaror qilindi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘lim jazosini bekor qilish, Davlat internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanishini ta‘minlash uchun shart-sharoitlar yaratish, qonunni buzgan holda olingan dalillardan odil sudlovnii amalga oshirish chog‘ida foydalanishga yo‘l qo‘ymaslik kabi o‘zgarishlar kiritildi.

Umuman olganda, bu kiritilgan barcha o‘zgarishlar aholining osoyishta va tinch hayot kechirishini va ularning erkin va farovon, qudratli Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma‘naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish,adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni



kafolatli ta‘minlashda yordam beradi. Konstitutsiya baxtimiz qomusi deyishimizdan maqsad ona xalqimizning ertangi kuni O‘zbekiston kelajagi bo‘lmish biz yoshlarning yetuk inson bo‘lib yetishishimizning asosiy kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://kun.uz/uz/news/2023/05/02/yangi-konstitutsiya-10-ta-asosiy-ozgarish#>
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Konstitutsiya>
3. https://constitution.uz/oz/pages/Konstitusiyamizning_yaratilishi
4. <https://kun.uz/uz/90831231>
5. <https://uz.wiktionary.org/wiki/konstitutsiya>

